

SHARTNOMA 7

Hazorasp tuman

"30" avgust 2022

Bundan buyon matnda «Sotuvchi» deb ataluvchi **"Xorazm Investment Savdo"** MCHJ nomidan rahbari A.Xudayberganov bir tomondan hamda bundan buyon matnda «Xaridor» deb ataluvchi Hazorasp tuman MTB nomidan rahbari X.Abdirasulova ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Sotuvchi" o'ziga tegishli mol-mulkni "Xaridor"ning mulki qilib (doimiy xo'jalik yurituvchi yoki butunlay boshqaruviga) beradi, "Xaridor" esa mol-mulkning haqi to'langandan keyin olish majburiyatini oladi.

1.2. Moliyalshtirish manbasi: bydjet **100022860332207091100251021**

t.r.	Mahsulot turi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
1	Choyshab	Dona	2500	56000	140 000 000
	JAMI		470	x	140 000 000

2. SHARTNOMA NARXI, BAXOSI, SUMMASI (QIYMATI)

2.1.Shartnomaning umumiy qiymati: **140 000 000 (Bir yuz qirq milliion)** so'm 00 tiyinni tashkil qiladi. Shundan **140 000 000 (Bir yuz qirq milliion)** so'mi byudjet mablag'i xisobidan qolgan - (-) so'mi byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.

3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. «Xaridor» «Sotuvchidan» hisob-raqamiga shartnomada ko'rsatilgan mahsulot miqdori turi yetkazilib berilganidan keyin summasining 30% foizini oldindan 5 bank ish kuni ichida o'tkazishni o'z zimmasiga oladi. Qolgan 70% foizi mahsulot yetkazib berilgandan keyin o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. To'lov turi: **to'lov topshiriqnoma**

4. SHARTNOMANING BAJARILISH MUDDATI

4.1. Shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan mahsulot «Xaridor»ga shartnoma imzolanganidan keyin 7 kun vaqt ichida berilishi shart.

4.2. Shartnomaning amal qilish muddati: G'aznachilik bo'limida ro'yxatda o'tgandan 2022 yil " 31 " dekabrgacha o'z kuchida qoladi.

5. TARAFLARNING HUQUQLARI

5.1. «Xaridor»ning huquqlari:

5.1.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan maxsulotlarni o'z vaqtida va sifatli maxsulotni yetkazishni «Sotuvchi»dan talab qilishga;

5.1.2. «Sotuvchi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

5.2. «Sotuvchi»ning huquqlari:

5.2.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan maxsulotlar uchun oldindan xaq to'lashni va amaldagi shartnoma va qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xisob-kitoblarni amalga oshirishni «Sotuvchi»dan talab qilishga;

5.2.2. «Xaridor»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, maxsulotni qabul qilishda asossiz ravishda rad qilish natijasida yetkazilgan zararni talab qilishga haklidir.

6. TARAFLAR MAJBURIYATI

6.1. «Sotuvchi» majburiyati:

6.2. Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Xaridor»ga mahsulotni yetkazib berish;

6.2. «Xaridor» majburiyati:

6.2.1. Tegishli darajada sifatli bulmagan maxsulot kelib tushgani aniklangandan keyin b xakda dalolatnoma yozilib, 24 soat ichida "Sotuvchi" ni ogoxlantirish.

6.2.2. Mahsulotning bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatd to'lash.

7. TARAFLAR JAVOBGARLIGI.

7.1. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

7.2. But bo'lmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi): tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart; yetishmayotgan qismlar qiymatini qo'shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 % miqdorida jarima undirishga haqli.

7.3. Tegishli darajada sifatli bajarilmagan mol-mulk o'z vaqtida almashtirishdan bosh tortsa, "Sotuvchi" 20 % miqdorda jarima to'laydi.

7.4. Etkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

7.5. "Sotuvchi" omboridan o'z vaqtida mol-mulk olib chiqib ketilmasa, agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko'zda tutilgan bo'lsa, "Xaridor" har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun "Sotuvchi"ga omborda chiqqanligidan kelib chiqqan zarar uchun 0,5 % miqdorda jarima to'laydi.

7.6. Jarima to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

8. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

8.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora

berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

8.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

8.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

9. FORS-MAJOR HOLATLARI

9.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va engib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Urush e'lon kilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya,

9.2. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar, bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

10. NIZONI HAL QILISH TARTIBI

10.1. Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

10.2. Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

11. SHARTNOMANING O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI

11.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo'ladi.

11.2. Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

12. BOSHQA HOLATLAR

12.1. Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib ikki nusxada tuzilgan.

12.2. Shartnoma byudjet mablag'lari xisobidan tuzilganda G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

13. TARAFLARNING YURIDIK MANZILGOHI VA TO'LOV REKVIZITLARI

«Sotuvchi»

Xorazm Investment Savdo MCHJ

Manzil: Hazorasp tumani
Sanoat MFY

H/r: 2020 8000 9051 7579 1001

MFO 00558

Bank ATB Agrobank

Hazorasp filiali

INN:307112076 OKONX:

Tel.: 88-201-44-44

Rahbar: A.Xudayberganov



«Xaridor»

Hazorasp tuman MTB

Manzil: Hazorasp tuman MTB

H/r:100022860332207091100251021

Bank Markaziy bank Toshkent sh
MFO 00014

INN305174254 OKONX:

Tel.: 623325357

Rahbar: X.Abdirasulova.



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RSIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Mahsulot yetkazib berish shartnomasi

3. Loyihaning mazmuni: Bundan buyon matnda «Sotuvchi» deb ataluvchi “**Xorazm Investment Savdo**” MCHJ nomidan rahbari A.Xudayberganov bir tomondan hamda bundan buyon matnda «Xaridor» deb ataluvchi Hazorasp tuman MTB nomidan rahbari X.Abdirasulova ikkinchi tomondan umumiy summasi 140 000 000 (Bir yuz qirq milliom) so`mlik Mahsulot yetkazib berish to`g`risida shartnomasi loyihasi ishlab chiqilgan.

t.r.	Mahsulot turi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
1	Choyshab	Dona	2500	56000	140 000 000
	JAMI		470	x	140 000 000

4. Mazkur shartnoma loyihasi Hazorasp tuman maktabgacha ta'lim bo'lim tomonidan 2022 yil 29-avgust kuni Hazorasp tumani yuridik xizmat ko'rsatish markaziga yuborilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Hazorasp tumani yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



Z. Niyozmatov

2022 yil «30» avgust